

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	9
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY.....	16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI	44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
MACHINE LEARNING-ASSISTED PREDICTION OF FIRE-RETARDANT AND PRESERVATIVE PERFORMANCE OF CHEMICALLY MODIFIED WOOD: AN ECO-FRIENDLY APPROACH.....	52
Usmanova Maftunakhon Abror qizi	
TEMIR YO'L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA MAYDON QURILMALARINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH ISHONCHLILIGINI UYALI ALOQA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	60
Botirov Abdulaziz Temir o'g'li	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IDA NOL STAVKANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66
A.A. Bobomurodov	
KERAMIKA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MEHNAT SHAROITLARINI SANITAR-GIGIYENIK VA INTEGRAL BAHOLASH («OZIQ-OVQAT STANDART KARTON» MCHJ TARKIBIDAGI «TOSHKENT KAFEL» KORXONASI MISOLIDA)	71
S. Sulaymanov, N.A. Erdonova	
PYTHON-BASED NUMERICAL ANALYSIS OF THE LOGISTIC POPULATION GROWTH MODEL	76
Berdiyev Shohjahon, Khayitova Fayza	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOT HAJMIGA SOLIQ OMILINING TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	85
Fayziyeva Nargiza Rabimovna	
ISHLAB CHIQUARISH KICHIK BIZNESINI HUDUDIY JOYLASHTIRISH OMILLARI VA IXTISOSLASHUV YO'NALISHLARINI BAHOLASH	93
Salimov Burxoniddin	
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	98
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
CHUQUK O'RGANISH ARXITEKTURALARI ASOSIDA O'ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH	105
Uzoqov Lochinbek Mamurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	111
Almanov Ilhom Sultonovich	



TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN ISHLAB CHIQRISHNI MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI	125
Iskandarova Dilorom Xayrullayevna	
KORXONALARDA BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING GLOBAL VA MILLIY AMALIYOTI TAHLILI	130
Jumaev Sohib Baxodirovich	
YOSHLARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI IQTISODIY FAROVONLIKKA KONVERSIYA QILISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEKANIZMI	136
Palvonova Sevara Baxromovna	
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI TIZIMIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	141
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	
ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ.....	148
Mўminjonov Anvarbek Сайфитдин угли	
NOQISHLOQ XO'JALIGINING TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASHDA ILMIY- USLUBIY YONDASHUVLAR	156
Nurullayev Ulug'bek	
TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING ROLI	161
Karimova Dilafruz Sadirdin qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREATIV XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	166
Xamroyeva Sitara Otabekovna	
ОЦЕНКА ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СТАНЦИИ, ИНТЕГРИРОВАННОЙ С МАГИСТРАЛЬНЫМИ ВОДОКАНАЛАМИ.	172
Юлдошев Исроил, Ботиров Бозорбек, Жураев Обид, Курбанов Юнус, Хамдамова Ирода, Атоева Мохинур	
SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA KLINIK VA BOSHQARUV QARORLARINI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI RAQAMLI PLATFORMALARNI RIVOJLANTIRISH	185
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLARNING TARKIBIY KO'RINISHLARI HAMDA ULARNI ANIQLASH AMALIYOTI TAHLILI	190
Mulayev Farxod Alisherovich	
SANOATDA PORSHENLI KOMPRESSORLARNING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ASOSIY MUAMMOLAR TAHLILI	195
Abdixakimova Malika Amir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI KOMPETENSIYALAR VA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI	207
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	213
Qahramonova Maftuna Davronovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	220
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
KO'P FAKTORLI AVTENTIFIKATSIYA VA KRIPTOGRAFIK HIMOYA MEKANIZMLARI ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI OSHIRISH	227
Babakulov Bekzod Mamatkulov	
AHOLIGA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK TADQIQOTI	234
Nasrullayev Feruz	
SOLIQDAN BO'YIN TOVLASH HOLATLARINI KAMAYTIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ XAVFINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	238
Ismailov Bobir Salomovich	
ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ И РЕЖИМОВ РАБОТЫ ГИБРИДНОЙ СОЛНЕЧНО-КОТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ..	245
Файзиев Зафар, Юзбаева Шохид	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH: INSTITUTSIONAL ASOSLAR, INVESTITSIYAVIY IMKONIYATLAR VA IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIK.....	250
Sh. Qurbonova	
XULQ-ATVORGА ASOSLANGAN SUG'URTA KONSEPSIYASI ORQALI SUG'URTA TARIFLARINI PERSONALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	260
Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING O'RNI VA AHAMIYATI	265
N.K. Muxitdinova, Raxmatova Sevinch	
YUQORI TEXNOLOGIYALI SANOAT TARMOQLARIDA QO'SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH MASALALARI: O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI MISOLIDA	269
Ashirmetova Ozoda Farxod qizi	
KINEMATIC SIMULATION OF SPINDLE AND PRESSING-SECTOR MOTION IN AN ELLIPTICAL-DRUM VERTICAL-SPINDLE COTTON PICKER.....	277
Rajapbayev Umidjon Alisher o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION MAHSULOTLARGA ICHKI TALABNI SHAKLLANTIRISH VA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	283
Azizova Maliha Farrux qizi	
AGLOMERATSIYALAR VA YIRIK SHAHARLAR ATROFIDAGI HUDUDLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING SHAHARSOZLIK MODEL I	290
Azamiddin Quldashev	
ZAMONAVIY SHAHARLAR EKOLOGIK INFRATUZILMASINING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	295
Jo'rayev Muxriddin, Olimova Mohinur, Tugalov Bobur	
BYUDJET YO'QOTISHLARINING JARAYONLI LOKALIZATSIYASI: DAVLAT XARIDLARI TRANSAKSION SIKLINING XARITASI (PROCESS MAPPING).....	301
Jasur Nurmatov	
QUYOSH ENERGIYASI ASOSIDAGI ISSIQXONA MIKROIQLIMINI TA'MINLASH QURILMASINING PARAMETRLARI VA ISH REJIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH.....	307
Qulboyev Zohid Xo'jamuradovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATLASHUV DARAJASINING ZAMONAVIY HOLATI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI	312
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARGA HUDUDIY INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIKNI OSHIRISH VA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Muxamadjanov Shaxriyor Solijon o'g'li	



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОЕКТНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ И ЛИЗИНГА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	324
Исомов Б.С.	
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ВЕРИФИКАЦИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ИСПАРИТЕЛЬНОГО ОХЛАЖДЕНИЯ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОГО МОДУЛЯ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА.....	330
Ботиров Бозорбек, Тураев Фарходжон	
KAM RESURSLI TILLARDAGI ILMIY JURNALLAR UCHUN METAMA'LUMOTLARNI AVTOMATIK EKSTRAKSIYA QILISH VOSITASI.....	336
Rashid Turgunbaev	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПИЛЬНОГО ОЧИСТИТЕЛЯ ВОЛОКНА.....	342
Дадажанов Арафатали Комилжанович	
INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT	348
Yorqin Khudoyiberdiev	
INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT	352
Yorqin Khudoyiberdiev	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EMPIRIK TAHLIL QILISH	360
Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li	
ELEKTRON BANK XIZMATLARINI AUDIT QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI	365
To'rayeva Farida Rustam qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL BOZORI VOSITALARI ORQALI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	369
Qurbonov Javlonbek, Farxodova Aziza	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	374
Сейдеметова Эльмира Оралбай кизи	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUVI VA DAROMADLARINING PROGNOZI	378
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
XIZMATLAR SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	385
Raximov Zafar Komilovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLAGI DINAMIKASINI STATISTIK TAHLIL QILISH	392
Akbarova Barno Shuxratovna	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	398
Bazarov Diyor Gafurovich	
UZUN QOZIQLI BARABAN QOZIQLARI ILIB OLGAN PAXTA BO'LAKLARINING OG'ISH YOYINI ANIQLASH	406
R.K. Djamalov, Karimov Maxmud Raxmatovich	
TIJORAT BANKLARI OMONATLARINING MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	411
Shodiyev Odiljon Salim o'g'li	
ORGANIK MEVA-SABZAVOTLARNI SOTISHDA MARKETING-REKLAMA MA'LUMOTLARI ALMASHISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION XIZMAT TURLARI	416
Shavqidinova Dilnavoz, Abror Mamasadikov	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AKTIVLAR HISOBI VA ULARNI MOLIVAVIY HISOBDA AKS ETTIRISH AMALIYOTI	421
Saidova Kamolat Farhodovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHNING INVESTITSIYA JARAYONI SIKLIK MODEL ASOSIDA NAZARIY-TAHLIL YONDASHUV	425
Mohina Boboqulova G'ofur qizi	



O'ZBEKISTON SANOATIDA INDUSTRY 4.0 TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING UZOQ MUDDATLI ISTIQBOLLARI.....	435
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
O'ZBEKISTONDA OILAVIY TAKAFUL SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIIY OMILLARI.....	443
Usmanov Nematjon G'ulomovich	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA PUL BOZORI LIKVIDLIGI, FOIZ KORIDORI VA MONETAR TRANSMISSIYA SAMARADORLIGINING MILLIY VALYUTA BARQARORLIGIGA TA'SIRI	451
G'afurov Olimjon G'olib o'g'li	
КРАУДФАНДИНГ В СИСТЕМЕ АЛЬТЕРНАТИВНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ПОДХОД	458
Каримова Азиза Аъзамиддин кизи	
TRANSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASINING TARKIBIY TUZILMASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	464
To'xtayev Vahobjon Husenovich	



TRANSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASINING TARKIBIY TUZILMASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI

To'xtayev Vahobjon Husenovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Transport-logistika infratuzilmasining tarkibiy tuzilmasi, uning asosiy elementlari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilingan. Transport-logistika infratuzilmasining iqtisodiy o'sishni ta'minlash, hududlararo integratsiyani mustahkamlash, xalqaro savdoni kengaytirish va tranzit salohiyatini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot davomida avtomobil, temir yo'l, havo va suv transporti, logistika markazlari, terminallar, ombor xo'jaliklari hamda raqamli logistika platformalarining o'zaro integratsiyasi va ularning samaradorlikka ta'siri baholangan. Shuningdek, jahon amaliyotida transport-logistika tizimlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, jumladan, raqamlashtirish, multimodal tashuvlar, yashil logistika, aqlli transport tizimlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llash xususiyatlari tahlil qilingan. O'zbekiston transport-logistika infratuzilmasining bugungi holati, mavjud muammolari va rivojlanish istiqbolari statistik hamda qiyosiy tahlil asosida baholangan. Tadqiqot natijasida transport-logistika infratuzilmasining samaradorligini oshirish, logistika xizmatlari sifatini yaxshilash, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda xalqaro transport koridorlaridan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: transport-logistika infratuzilmasi, transport, yuk tashish, logistika markazlari, multimodal tashuvlar, raqamli logistika, transport koridorlari, infratuzilma.

Abstract. The structural composition of transport and logistics infrastructure, its key components, and contemporary development trends are comprehensively analyzed. The role of transport and logistics infrastructure in promoting economic growth, strengthening interregional integration, expanding international trade, and enhancing transit potential is examined from a scientific perspective. The integration of road, railway, air, and water transport with logistics centers, terminals, warehousing facilities, and digital logistics platforms, as well as their impact on the efficiency of logistics systems, is assessed. Furthermore, major global trends in the development of transport and logistics systems, including digitalization, multimodal transportation, green logistics, intelligent transport systems, and the application of public-private partnership mechanisms, are analyzed. The current state of Uzbekistan's transport and logistics infrastructure, existing challenges, and development prospects are assessed through statistical and comparative analysis. Based on the research findings, scientifically grounded proposals and recommendations are developed to improve the efficiency of transport and logistics infrastructure, enhance the quality of logistics services, increase investment attractiveness, and ensure the effective utilization of international transport corridors.

Keywords: transport and logistics infrastructure, transport, freight transportation, logistics centers, multimodal transportation, digital logistics, transport corridors, infrastructure.

Аннотация. Проведён комплексный анализ структурного устройства транспортно-логистической инфраструктуры, её основных элементов и современных тенденций развития. С научной точки зрения раскрыта роль транспортно-логистической инфраструктуры в обеспечении экономического роста, укреплении межрегиональной интеграции, расширении международной торговли и развитии транзитного потенциала. В ходе исследования оценены интеграция автомобильного, железнодорожного, воздушного и водного транспорта с логистическими центрами, терминалами, складскими комплексами и цифровыми логистическими платформами, а также их влияние на эффективность логистических процессов. Кроме того, проанализированы основные мировые тенденции развития транспортно-логистических систем, включая цифровизацию, мультимодальные перевозки, «зелёную» логистику, интеллектуальные транспортные системы и применение механизмов государственно-частного партнёрства. Современное состояние транспортно-логистической инфраструктуры Узбекистана, существующие проблемы и перспективы её развития оценены на основе статистического и сравнительного анализа. По результатам исследования разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности транспортно-логистической инфраструктуры, улучшение качества логистических услуг, повышение инвестиционной привлекательности и эффективное использование международных транспортных коридоров.

Ключевые слова: транспортно-логистическая инфраструктура, транспорт, грузовые перевозки, логистические центры, мультимодальные перевозки, цифровая логистика, транспортные коридоры, инфраструктура.



KIRISH

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo hajmining kengayishi hamda ishlab chiqarish va iste'mol zanjirlarining murakkablashuvi transport-logistika infratuzilmasining iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Mazkur infratuzilma tovarlar, xizmatlar va resurslarning uzluksiz harakatini ta'minlash, transport xarajatlarini optimallashtirish, yetkazib berish muddatlarini qisqartirish hamda hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois transport-logistika infratuzilmasining tarkibiy tuzilmasini chuqur o'rganish va uning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Transport-logistika infratuzilmasi avtomobil, temir yo'l, havo va suv transporti tarmoqlari, logistika markazlari, terminal va ombor majmualari, bojxona hamda axborot-kommunikatsiya tizimlari kabi o'zaro bog'liq elementlar majmuasidan iborat. Mazkur elementlarning samarali integratsiyasi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, tranzit salohiyatidan oqilona foydalanish va eksport-import operatsiyalarining samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda raqamlashtirish, multimodal tashuvlarni rivojlantirish, "yashil logistika" tamoyillarini joriy etish hamda transport koridorlarini modernizatsiya qilish ushbu sohaning asosiy rivojlanish tendensiyalariga aylangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishda moliyaviy ta'minot va transport korxonalarining iqtisodiy barqarorligi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. A. V. Loginov transport-logistika kompaniyalarini tijorat asosida moliyalashtirish mexanizmlari va ular bilan bog'liq moliyaviy risklarni o'rgangan [1]. I. N. Antonov transport xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarni bank kreditlari orqali moliyalashtirish masalalariga e'tibor qaratgan [2]. E. A. Kozlova esa avtotransport korxonalarini modernizatsiya qilishda lizingdan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etgan [3]. Mazkur yondashuvlar transport infratuzilmasining tarkibiy rivojlanishini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning ahamiyatini ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda transport va logistika sohasidagi korxonalarni moliyalashtirish hamda zamonaviy infratuzilmani shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Y. Shen Xitoy transport va logistika sektoridagi kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda banklar hajmi va kreditlash imkoniyatlari o'rtaidagi bog'liqlikni tadqiq etgan [4]. W. Lam va Y. Liu transport-logistika bozorida kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirish masalalarini yoritgan [5]. T. Kobayashi raqamli transport infratuzilmasini moliyalashtirish masalalarini Sharqiy Osiyo tajribasi asosida o'rgangan [6]. Ushbu tadqiqotlar transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi moliyaviy imkoniyatlar, raqamlashtirish va zamonaviy investitsiya mexanizmlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

E. Parviziomran va R. Bergqvist avtomobil yuk transportining barqaror rivojlanishga o'tishi bilan bog'liq xarajatlar va moliyalashtirish masalalariga e'tibor qaratib, transport tizimining texnologik yangilanishida moliyaviy imkoniyatlarning muhimligini asoslaganlar [7]. Mazkur ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish transport-logistika infratuzilmasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish tendensiyalarini transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda barqaror transport tizimini shakllantirish jarayonlari bilan o'zaro bog'liq holda tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining transport va logistika sohasiga oid rasmiy statistik ma'lumotlari, transport infratuzilmasi bo'yicha ochiq ma'lumotlar hamda mavzuga doir ilmiy manbalar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida 2020–2025-yillarda transport va saqlash sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar, transport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, shuningdek, transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmi va o'sish sur'atlariga oid ma'lumotlar yig'ildi hamda tizimlashtirildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik, qiyosiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Ko'rsatkichlarning yillar bo'yicha o'zgarish tendensiyalari o'zaro taqqoslanib, ularning o'sish sur'atlari baholandi hamda transport-logistika infratuzilmasining tarkibiy rivojlanish xususiyatlari bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transport-logistika infratuzilmasi mamlakat iqtisodiyotining samarali faoliyat yuritishi va tashqi savdo salohiyatini oshirishda strategik omil hisoblanadi. Ushbu infratuzilma tarkibiga avtomobil transporti, temir yo'l, havo va dengiz transporti, shuningdek, ombor va terminal tizimlari, logistika markazlari hamda axborot-kommunikatsiya platformalari kiradi. Yaxlit transport-logistika tizimi tovar va xizmatlarni o'z vaqtida yetkazib berish, xarajatlarni optimallashtirish, eksport va import jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Yangi temir yo'llar va avtomobil magistralari, zamonaviy aeroportlar va yuk terminali komplekslari barpo etilmoqda, shuningdek, logistika markazlarida raqamli platformalar joriy qilinmoqda. Ushbu tendensiyalar ichki bozorni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va hududlararo savdo aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, transport-logistika infratuzilmasining takomillashuvi kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish, xomashyo va tayyor mahsulotlarni tezkor yetkazib berish orqali investitsiya samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

Transport va saqlash sohasidagi investitsiyalar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida, tovarlarni yetkazib berish va logistika samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. 2020-yilda ushbu sohada o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 14 132,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda u 35 155,0 mlrd so'mga yetdi. Investitsiyalar transport infratuzilmasini rivojlantirish, saqlash va logistika xizmatlarini takomillashtirish, shuningdek, ichki va tashqi bozorlar bilan integratsiyani mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon yangi ish o'rinlarini yaratish va investitsiya samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog'liq (1-rasm).




1-rasm. 2020–2025-yillarda tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mlrd so'mda¹

2020–2025-yillarda transport va saqlash sohasida o'zlashtirilgan investitsiyalar izchil o'sish sur'atlarini ko'rsatdi. 2020–2022-yillarda ularning hajmi 14 132,7 mlrd so'mdan 20 598,6 mlrd so'mga oshdi, 2023-yilda esa 25 298,8 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilda investitsiyalar hajmi 25 111,9 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda sezilarli darajada oshib, 35 155,0 mlrd so'mga yetdi. Ushbu dinamikani transport-logistika infratuzilmasini kengaytirish, terminal va ombor komplekslarini modernizatsiya qilish hamda davlatning investitsion qo'llab-quvvatlashi bilan izohlash mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillarda transport va saqlash sohasida o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi, bu esa sohaning rivojlanishi va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Investitsiyalar transport infratuzilmasini kengaytirish, logistika xizmatlarini takomillashtirish va ichki hamda tashqi bozorlar bilan aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, investitsiyalar yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Natijada, transport va saqlash infratuzilmasining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Transport sohasidagi iqtisodiy faoliyat milliy va mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, ichki va tashqi savdo oqimlarini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. 2021–2025-yillar oralig'ida sohada faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonining dinamikasi kichik tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalar bo'yicha farqlanadi. Kichik tadbirkorlik subyektlari soni dastlab oshib, keyinchalik o'zgarish tendensiyasini ko'rsatgan, bu esa bozor sharoitlari, raqobat va tartibga solish jarayonlaridagi o'zgarishlar bilan izohlanadi. Yirik korxonalar sonidagi dinamik o'zgarishlar esa transport tarmog'ining strategik yo'nalishlardagi barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi (2-rasm).

1 <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.




2-rasm. Transport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-yanvar holatiga, fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, birlikda)²

2021-yilda transport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 17 056 birlikni tashkil etgan. 2022-yilda ularning soni 18 045 taga yetib, 5,8% o'sish kuzatilgan, bu esa kichik tadbirkorlikning qisqa muddatli rivojlanish sur'ati bilan izohlanadi. 2023-yilda esa ularning soni sezilarli darajada oshib, 20 451 birlikni tashkil qilgan, bu davrda transport infratuzilmasidagi liberallashtirish va davlat tomonidan kichik biznesga ko'rsatilgan qo'llab-quvvatlash natijasi sifatida baholanishi mumkin. 2024-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari soni 17 716 birlikni tashkil etib, 13,4% o'zgarish qayd etilgan, bu esa bozor sharoitlarining o'zgarishi, xarajatlar dinamikasi yoki kichik transport kompaniyalarining konsolidatsiyasi bilan izohlanishi mumkin. 2025-yilda esa ularning soni 15 545 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 12,3% o'zgarishni ifodalaydi. Shu bilan birga, yirik korxonalar soni 2021-yildagi 245 birlikdan 2025-yilda 233 birlikni tashkil etgan. Ushbu dinamika strategik transport yo'nalishlari va yirik infratuzilma loyihalarining davomiyligini aks ettiradi. Kichik va yirik korxonalar sonidagi o'zgarish tendensiyalari o'zaro bog'liq bo'lib, kichik subyektlar sonidagi o'zgarishlar yirik korxonalar tomonidan bozor ulushini kengaytirish va transport xizmatlarini markazlashgan boshqaruv orqali samarali taqsimlash imkoniyatlarini shakllantiradi.

2021–2025-yillarda transport sohasidagi korxona va tashkilotlar soni dinamikasi kichik tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalar bo'yicha farqlanadi. Kichik subyektlar dastlab o'sish sur'atini ko'rsatgan bo'lsa, keyingi yillarda ularning sonida muayyan o'zgarishlar kuzatilgan. Shu bilan birga, yirik korxonalar faoliyati nisbatan barqaror tendensiyani namoyon etgan. Bu transport infratuzilmasining strategik yo'nalishlarda konsolidatsiyalashuvi, bozor tarkibining takomillashuvi va kichik subyektlar faoliyatining iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Natijada, transport sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish va yirik korxonalar bilan sinergetik integratsiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport tizimi milliy iqtisodiyotning asosiy infratuzilmasi bo'lib, tovarlarni yetkazib berish va ishlab chiqarish zanjirining barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yuk tashish hajmi va o'sish sur'atlari iqtisodiy faollik, transport quvvatlari va logistika samaradorligini aks ettiruvchi indikatorlar sifatida qaraladi. 2020–2025-yillarda barcha transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmi barqaror o'sish ko'rsatkichlarini namoyon qildi. Shu bilan birga, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlaridagi farqlar transport tarmog'idagi segmentlararo muvozanat, iqtisodiy omillar va logistika infratuzilmasining rivojlanish sur'atlarini aks ettiradi. Bu davrda transport tizimining samaradorligi va yuk tashish hajmining o'sish dinamikasi o'zaro bog'liq bo'lib, iqtisodiy strategiyalar bilan muvofiqlashtirilgan (3-rasm).



3-rasm. Barcha transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmi va o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan³

2020-yilda barcha transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmi 1 366,7 mln tonnani tashkil etdi. 2021-yilda hajm 1 420,2 mln tonnaga yetib, o'sish sur'ati 3,9% ni tashkil qildi, bu iqtisodiy faollikning tiklanishi va transport quvvatlaridan samarali foydalanish bilan izohlanadi. 2022-yilda yuk tashish hajmi 1 420,9 mln tonnaga yetib, o'sish sur'ati 0,1% ni tashkil etdi. Bu holat o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atining mo'tadillashuvi hamda transport tarmog'ida logistika jarayonlari va tashqi talabning o'zgarishi bilan bog'liq. 2023-yilda hajm 1 455,7 mln tonnaga oshib, o'sish sur'ati 2,4% ni tashkil etdi. 2024-yilda esa yuk tashish hajmi 1 521,2 mln tonnaga yetib, o'sish sur'ati 4,5% ni tashkil etdi, bu iqtisodiy faollik va transport xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan izohlanadi. 2025-yilda yuk tashish hajmi 1 601,0 mln tonnaga yetib, o'sish sur'ati 4,3% ni tashkil qildi, bu transport tizimining barqaror va strategik rivojlanishini aks ettiradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, yuk tashish hajmining o'sishi iqtisodiyotdagi investitsiyalar, transport infratuzilmasidagi yangilanishlar va transport xizmatlariga bo'lgan talab bilan uzviy bog'liq. O'sish sur'atlarining o'zgarishi transport tarmog'ining samaradorligini oshirish va ichki logistika zanjirlarini yanada mustahkamlash muhimligini ko'rsatadi.

2020–2025-yillarda barcha transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmi barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. O'sish sur'atlari 0,1% dan 4,5% gacha o'zgarib, transport tarmog'ining dinamik rivojlanishi va iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Hajmning uzluksiz ortishi iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, transport infratuzilmasining modernizatsiyasi va logistika samaradorligining oshishi bilan izohlanadi. Natijada, yuk tashish hajmini oshirish va o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish transport tizimining milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi strategik rolini kuchaytiradi hamda ichki va tashqi savdo oqimlarini ta'minlashda samarali mexanizmlarni joriy etish muhimligini aks ettiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari transport-logistika infratuzilmasining tarkibiy tuzilmasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Transport tarmoqlari, logistika markazlari, terminallar, ombor xo'jaliklari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda multimodal transport tizimlarining o'zaro uyg'un faoliyati yuk va yo'lovchi tashish jarayonlarining samaradorligini oshirish, logistika xarajatlarini optimallashtirish hamda ta'minot zanjirining uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganligi mamlakatning xalqaro transport koridorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish, tranzit salohiyatidan samarali foydalanish va tashqi savdo aloqalarini kengaytirishga bevosita xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, jahon amaliyotida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida raqamlashtirish, aqlli transport tizimlarini joriy etish, multimodal tashuvlarni kengaytirish, yashil logistika tamoyillarini rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tendensiyalar logistika jarayonlarining shaffofligi va tezkorligini oshirish, transport xarajatlarini optimallashtirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston transport-logistika infratuzilmasining bugungi holati tahlili mavjud salohiyatdan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Jumladan, ayrim hududlarda logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish, transport tarmoqlari integratsiyasini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish sur'atlarini

3 <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



jadallashtirish hamda logistika xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo'nalishlarni yanada rivojlantirish uchun transport va logistika infratuzilmasini kompleks modernizatsiya qilish, zamonaviy logistika markazlari va multimodal terminallar tarmog'ini kengaytirish, raqamli logistika platformalarini rivojlantirish, xalqaro transport koridorlari bilan integratsiyani kuchaytirish hamda xususiy investitsiyalarni faol jalb etish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, logistika xizmatlarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash va malakali kadrlar salohiyatini oshirish transport-logistika tizimining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda mamlakatning xalqaro logistika tizimidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Логинов, А. В. Коммерческое финансирование транспортно-логистических компаний: механизмы и риски / А. В. Логинов // Экономика и предпринимательство. – 2020. – № 9. – С. 134–140.
2. Антонов, И. Н. Банковское кредитование субъектов транспортного сервиса / И. Н. Антонов // Финансы: теория и практика. – 2018. – № 6. – С. 88–96.
3. Козлова, Е. А. Лизинг как инструмент модернизации автотранспортных предприятий / Е. А. Козлова // Вестник экономики и управления. – 2022. – № 11. – С. 52–60.
4. Shen, Y. Bank Size and SME Financing in the Logistics and Transport Sector of China / Y. Shen // Journal of Asian Economics. – 2019. – Vol. 64. – P. 101–115.
5. Lam, W. Tackling SME Financing in Chinese Transport and Logistics Markets / W. Lam, Y. Liu // Asian Economic Papers. – 2020. – Vol. 19, No. 2. – P. 56–78.
6. Kobayashi, T. Financing Digital Transport Infrastructure: Evidence from East Asia / T. Kobayashi // Asia-Pacific Economic Review. – 2023. – Vol. 15, No. 4. – P. 33–47.
7. Parviziomran, E. Cost and Financing of the Sustainability Transition in Road Freight Transport / E. Parviziomran, R. Bergqvist // Transport Policy. – 2023. – Vol. 135. – P. 12–28.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100